

O'ZBEK TILIDA "HARAKAT TARZI" MA'NOSINI IFODALOVCHI LEKSEMALARNING MORFOLOGIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

*Karimova Mahliyo Atobayevna, Urganch innovatsion universiteti 2-
bosqich talabasi, matbuot kotibi*

MORPHOLOGICAL AND SYNTACTIC FEATURES OF LEXEMES THAT REPRESENT THE MEANING OF "WAY OF ACTION" IN UZBEK

*Karimova Mahliyo Atobayevna, 2nd year student of Urganch
Innovation University, press secretary*

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И СИНТАКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСЕМ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЗНАЧЕНИЕ "СТИЛЬ ДЕЙСТВИЯ" В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

*Каримова Махлиё Атобаевна, студентка 2-курса Ургенчского
инновационного университета, пресс-секретарь*

Annotatsiya: Maqolada publitsistik asarlardagi harakat tarzi shakllarining mohiyati, yaratilish sabablari, tiplari, uslubiy qo'llanishi hamda vazifalari haqida nazariy fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar. leksema, morfologik xususiyatlar, kontekstual ma'no, sintaktik xususiyatlar, leksik qo'llash, barqarorlashganlik, semantik tarkib, semantik qurshov, hokim qism.

Аннотация: В статье представлены теоретические взгляды на сущность, причины создания, виды, методическое применение и функции форм движения в публицистическом произведении.

Ключевые слова: лексема, морфологические признаки, контекстуальное значение, синтаксические особенности, лексическое употребление, устойчивость, смысловое наполнение, семантическое окружение, управляющая часть.


Abstract: This article discusses theoretical viewpoints regarding the nature, origins, varieties, systematic use, and purposes of forms of movement in journalism.

Key words: morphological characteristics, lexical usage, stability, syntactic properties, contextual meaning, lexeme, semantic content, semantic environment, ruling portion.

KIRISH. Til lug'at tarkibidagi so'zlarning me'yor asosidagi lisoniy qonuniyatlar asosida ham, nutqi faoliyatdagi sinxron o'zgarishlar asosida ham, shaxsiy ijodiy qo'llanishlar imkoniyati natijasida ham aks etgan holatlarni ko'rish mumkin.

Harakat tarzi ma'nolarini ifodalovchi leksemalar, ya'ni harakat fe'llari va ravishlar qator morfologik xususiyatlarga ega. Dastavval, ushbu leksemalarning morfologik qurilishiga e'tibor va shu o'rinda ingliz tilidagi vositalarga nisbatan

prinsipial farqni ilg'ash mumkin. Ingliz tilida ayrim fe'l formalari yasashni qoida asosida amalga oshirib bo'lmaydi, aksincha boshqa bir formalarni hosil qilish esa ma'lum yasash qo'liqlari orqali amalga oshiriladi, shu holatdan kelib chiqib, ingliz tilidagi fe'llar standart (to'g'ri) va nostandart (noto'g'ri) turlarga bo'linadi. O'zbek tilida barcha fe'l formalari muayyan qoidalar asosida yasaladi,



[https://orcid.org/
0009-0001-5893-
9008](https://orcid.org/0009-0001-5893-9008)

e-mail:
sharipova.mahliyo@
icloud.com

shu munosabat bilan bu tilda fe'llarning bunday turlari mavjud emas¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Ma'lumki, ingliz tilida fe'l ko'plab yasama ot, ravish va sifatning o'zagi hisoblanadi. Xoh harakat fe'llari, xoh holat fe'llari bo'lsin, ular asosida turli so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa turkum so'zlar yasaladi. O'zbek tilida esa, bunga aks holatni kuzatishimiz mumkin. Ma'lumki, so'z yasovchilar o'zbek tilida so'z yasaliş asosiga va so'z oxiriga qo'shiladi, ya'ni suffiks, suffiksoid xarakterida bo'ladi². Ya'ni, o'zbek tilida aksariyat holatda fe'llar ot so'z turkumidan -la, -ala kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi. Ayni paytning o'zida, harakat fe'llari -chi, -lik qo'shimchalari vositasida ot so'z turkumiga o'zgaradi. Shuningdek, harakat fe'llari morfologik yaxlitlanishi mumkin. Bunda so'z o'zagi biror qo'shimcha bilan birikib yangi ma'no hosil qilishi mumkin. Ya'ni qolipning tarkibiy qismi sifatida unga nisbatan kichikroq qolip ham bo'lishi mumkin³.

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida yasama so'z nutqiy birlik emas, lisoniy birlik —leksema sifatida baholanadi⁴. Qolaversa, harakat fe'llari o'zagi asosida sifat va ravishlar yasaliş ham mumkin. Demak, yuqoridagi misollardan kelib chiqqan holda, so'z yasalişida harakat fe'llari muhim ahamiyat kasb etadi va o'ziga xos "yasovchi" funksiyasi uning morfologik polifunksionallik tabiatiga dalil bo'la oladi. Ular sirasida, harakat fe'llarining zamon shakllari orqali tuslanishi haqida to'xtalib o'tish lozim. Zero, zamon shakllari ushbu leksemalarning mavjud tarz ma'nosiga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Bunda, xuddi ingliz tilidagi kabi o'zbek tilida ham zamon shakllari va tarz ma'nolari bir-biri bilan chambarchas bog'liq lisoniy hodisa sifatida baholanishi lozim.

Harakat fe'llarining morfologik xususiyatlari haqida so'z yuritar ekanmiz, ular sirasida ikki vazifali fe'llar haqida to'xtalib o'tishimiz lozim. Aslida, bir qarashda ikki vazifali fe'llar ingliz tiliga xos til hodisasidek tuyuladi. Sababi, to have, to do,

to be kabi fe'llar gapda o'z lug'aviy ma'nosiga ega mustaqil fe'l sifatida qo'llanishi bilan birga zamon shakllarini yasovchi bog'lamalar sifatida ham gavdalanadi. Zamon shakllarini yasovchi ushbu fe'llar tilshunoslar tomonidan yordamchi fe'llar deya tabaqalanadi. O'zbek tilidagi ikki funksiyali fe'llar esa ingliz tilidagidan farq qiladi. Ular harakat fe'li sifatida qo'llanishi, shuningdek, ko'makchi fe'l sifatida uchrashi mumkin. Bunday bipolyarlik asosan tarz ma'nosi tugal, aniq bo'lgan fe'llar kesimida uchraydi. Biroq, bunday ikki vazifali fe'llar tarz ma'nosi noaniq bo'lgan leksemalar sirasida uchramaydi. Shu sababdan bu morfologik xususiyatni barcha leksemalarga birdek taalluqli deyish yanqlish xulosa.

Harakat tarzi ma'nosini ifodalovchi ravishlar harakat fe'llaridan morfologik xususiyatlarining sanoqliligi bilan farq qiladi. Avvalambor, ushbu so'zlar aksariyat hollarda harakat fe'llaridan yasalgan, ularning orasida tub ravishlar kam uchraydi. Ravishlarning asosiy morfologik xarakteristikasi ularning darajalanish xususiyatidir. Harakat fe'llarining darajalanishi leksikologik hodisa bo'lsa, ravishlar darajalanishi grammatik, leksik-grammatik hodisa bo'ladi.

Sintaktik sathda tarz semasiga ega bo'lgan harakat fe'llari bir necha vazifalarni bajaradi. Avvalambor ushbu leksemalar gapda kesim vazifasida keladi. O'zining bevosita sintaktik vazifasi, ya'ni kesimlikdan tashqari ushbu leksemalar shakl yasovchi qo'shimchalar vositasida boshqa gap bo'laklari, jumladan, ega vazifasida keladi.

Tarz ma'nosini ifodalovchi ravishlar esa, sintaktik sathda hol vazifasini bajaradi va asosan harakatni ifodalovchi kesimlar bilan birikadi.

Har bir leksema ikki asosiy ko'rsatkichga, ya'ni shakl va mazmunga ega va ushbu ikki ko'rsatkich doimo bir-biriga mutanosib bo'lavermaydi. Ular orasidagi tafovut ayniqsa sintaktik sathda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ba'zi holatlarda shaklan kichik vosita nutqda yirik vazifaviy xususiyatini namoyon etadi, shuningdek, bunga teskari holat ham bo'lishi

¹Жалолова Ш. Инглиз ва ўзбек тилларидаги феъллар структурал, семантик ва функционал таснифининг изоморфлик ва алломорфлик хусусиятлари // Philology Matters, Vol. 32 No. 2 – Т.ЎзДЖТУ, 2020. – 66-67 б.

² Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиши тизими. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б. 22.

³ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 13.

⁴ Қаранг: Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995.

mumkin. Sintaktikaga muvofiq, har qanday sintaktik birlik nutqiy jarayonda turli variantlarda namoyon bo'luvchi umumlashgan mohiyat sifatida talqin qilinadi⁵. Shu o'rinda sintaktik birikmalar xususida to'xtalib o'tish lozim. Yuqorida keltirilganidek, sintaktik sathda tarz ma'nosini ifodalovchi hol va harakatni anglatuvchi kesim birikma sifatida namoyon bo'lishi nisbatan ko'p uchraydigan holat. Biroq, ushbu birikuvni o'zaro teng, ya'ni koordinativ birikuv deb bo'lmaydi. Mazmunan va shaklan tobelanishiga ko'ra bunday hol va kesim birikuv subordinativ xarakterga ega deyish mumkin. Bunda hokim qism, kesim boshqaruvchi, tobe qism hol boshqariluvchi hisoblanadi.

Yuqoridagi misollarda mazmuniy-sintaktik munosabatlarning shakliy-sintaktik aloqalar orqali ifodalanganiga guvoh bo'lamiz. Ba'zi holatlarda ushbu subordinativ bog'lanish relyativlik xarakteriga ham ega bo'lishi mumkin. Bunda hol hollanmish orasidagi subordinativ bog'lanish relyativlik xususiyatiga ega bo'ladi, ya'ni gapda bir necha hollar uyushiq bo'laklar sifatida qo'llanib, kesim (hollanmishning) tarz semasini kuchaytirishga, matnga uslubiy bo'yoqdorlik baxsh etishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA. Yuqorida ta'kidlan-ganidek, harakat tarzi shakllari leksemaning tildagi ko'rinishi va ma'nosiga xos bo'lmagan, ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha "tus" berishi natijasida yuzaga keltirilgan so'z shakli va uning sun'iy ko'rinishidir [5;17].

NATIJALAR. Qolaversa, tarz ma'nosini ifodalovchi kesim yoki hollarning sintaktik valentligi⁶ ham ularning alohida olingan o'ziga xos xususiyati sifatida baholanishi lozim. Ma'lumki, ikki so'z o'zaro mazmuni to'g'ri bog'lanishi uchun ular har ikkisida takrorlanadigan umumiy semaga ega bo'lishi, har ikki qismda semalar uyg'unligi bo'lishi kerak⁷. Bunday uyg'unlik semantik valentlik bo'lib u sintaktik valentlik bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Masalan, zamon ko'rsatkichi

payt ravishi bilan mutanosib bo'lishi ayni shu semantik-sintaktik qorishiq valentlilik deya nomlanishi mumkin. Ushbu valentlilik albatta subordinativ birikmaning tarz ma'nosiga ham ta'sir etmay qolmaydi. Tilshunoslikda "ega bilan kesimning bog'lanishi fikr ifodalaydi. Shuning uchun bu bog'lanish so'z birikmasi emas, balki gap sanaladi. Bunday qarashga muvofiq, so'z birikmasi faqat ikkinchi darajali bo'laklarning hokim bo'lak bilan bog'lanishini o'z ichiga oladi..."⁸ degan qarash mavjud, ammo fikr ifodalash nafaqat ega va kesim birikuvida, balki hol va kesim birikuvida ham ko'zga tashlanadi.

XULOSA. Umuman olganda, fikr ifodalay olish xususiyatini faqat ega+kesim birikuvida xos deya chegaralash ma'lum bir darajada noto'liq xulosa bo'ladi, deb o'ylaymiz. Zero, predikativ birikmalar, xususan, hol va kesim birikuv ham tugallangan fikr ifodalash xususiyatiga ega. Garchi ushbu ma'no matn konteksti vositasida yaqqollashsa-da, ushbu birikuvni alohida gap shaklida fikr ifodalamaydi, deb bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 18-19 б.
2. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б. 22.
3. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.19.
4. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 13.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдди. I-V жилдлар. – Тошкент: О'zbekiston milliy ensiklopediyasi Давлат илмий нашриёти, 2020.
6. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди. Дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 27 б.

⁵Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.7.

⁶ Қаранг: Кучкартаев И.К. Семантика глаголов речи в узбекском языке (компонентный и валентный анализ). Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1977; Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентность. Автореф. дисс. ...д-ра. филол. наук. – Ташкент, 1989; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг

семантикаси ва валентлиги. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2007.

⁷ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 18-19 б.

⁸ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.19